

**“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati**  
**Yagona aksiyadorining 9 - sonli qarori**

**2025-yil 25 - dekabr**

**Toshkent shahri**

“O‘zenergosotish” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 176 592 donani tashkil etadi.

“O‘zenergosotish” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

**1. “O‘zenergosotish” AJning 2024–2026-yillar yakunlari bo‘yicha moliyaviy hisobotlarini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazish yuzasidan auditorlik tashkilotini belgilash va ushbu tashkilotning xizmatiga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdorini tasdiqlash.**

**Kun tartibidagi masala yuzasidan:**

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 102-moddasiga asosan, Jamiyat yillik moliyaviy hisobotini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazgandan keyin, aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi sanasidan kamida ikki hafta oldin e‘lon qilishi shart.

Mazkur Qonunning 59-moddasi va “O‘zenergosotish” AJ Ustavining 7.3-bandiga binoan majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish yoki bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolati aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga (Yagona aksiyadorga) berilgan.

O‘z navbatida, “O‘zenergosotish” AJ Kuzatuv kengashining 2025-yil 15-iyuldagi 4-sonli majlisida auditning xalqaro standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazishda manfaatdor tomonlarning ishonchini oshirish uchun Jamiyat tomonidan 2024–2026-yillar yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazish yuzasidan davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan tan olinadigan katta to‘rtlikka (“Big Four”) kiruvchi xalqaro audit kompaniyalaridan birini jalb qilish bo‘yicha tanlov o‘tkazish va elektronsavdo tanlovi natijalari bo‘yicha tanlangan auditorlik tashkilotini tasdiqlash, unga to‘lanadigan haq miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish masalasini Jamiyatning Yagona aksiyadoriga kiritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

Shu bilan birga, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib 2024–2026-yillar yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlarni xalqaro audit standartlariga muvofiqligi yuzasidan audit o'tkazish uchun 2025-yil 28-noyabrdagi elektronsavdo tizimining UzEX TENDER platformasi orqali o'tkazilgan elektron tanlovlar (25120012457586-lot) natijasiga ko'ra "KPMG AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti tanlab olingan. Mazkur elektron tanlovlar natijasiga ko'ra 2024–2026-yillar yakuni bo'yicha Jamiyatning moliyaviy hisobotlarini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazish uchun 3 136,0 million so'm miqdorida haq to'lanishi ko'zda tutilmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 59-moddasiga muvofiq Jamiyatning Yagona aksiyadori **qaror qiladi**:

1. "O'zenergosotish" AJning 2024–2026-yillar yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotlarini xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazish uchun "KPMG AUDIT" MChJ auditorlik tashkiloti va unga to'lanadigan haq miqdori 3 136,0 million so'm etib belgilansin.

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari**

 **X. Mustafayev**